

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Abduraimova Mohichehra Jo'ra qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning shakllanishida oilaning roli, oilaviy tarbiya masalalari, yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda oilaning o'rni, Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarning ishtiroki haqida fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

Абстрактный: В данной статье широко освещены роль семьи в формировании ребенка, вопросы семейного воспитания, роль семьи в духовном воспитании подрастающего поколения, участие родителей в дошкольных образовательных учреждениях.

Abstract : In this article, the role of the family in the formation of the child, the issues of family upbringing, the role of the family in the spiritual upbringing of the young generation, and the participation of parents in preschool educational institutions are widely covered.

Kalit so'zlar: Oila kodeksi, jamiyat , Onalik va bolalik, ijtimoiy burch, tarbiya, sog'lom avlod, shaxs qadriyati, Oila bilan MTM hamorligi.

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta .Aqlan yetuk, axloqan pok ,jismonan baquvvat farzandlar, namunali oilalarda kamol topadilar.Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatga molik masaladir. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bola tarbiyasida ikki yonalish biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to'ldiradi.Bola sog'lom muhitda sog'lom fikrlaydi va o'sib ulg'ayadi.Farzand uchun sog'lom muhitni avvalambor oilasi yaratib berishi lozim ,bola yetuk farzand bo'lib rivojlanishida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar ham muhim ahamiyat kasb etadi.Ko'p xollarda Maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiyotida notekislikni ko'rish mumkin.

Masalan:bir yoshli bolalarning bazilari 10 taga yaqin so'zni ayta oladi .Mustaqil yura oladi .Ayni shu yoshdagi ayrim bolalarning esa mustaqil yura olmasligining ,zo'rg'a 1-2 ta so'zni ayta olishini afsuski guvohi bo'lganmiz .Bunday hollarda ota-ona farzandiga etiborli bolish kerak. Bolaga oilada yaxshi tarbiya bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlaboq ,ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifadir. Ya'ni ota-ona uchun ham qarz ham farzdir,oila bolaga ta'sir ko'rsatadi,uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jaimyatda esa tarbiya ota -onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan ,balki ularning ijtimoiy burchidir desak adashmagan bo'lamiz. Ma'lumki shaxsning qadriyati uning jamiyatdagi tutgan o'rni bilan belgilanib ,kop jihatdan uning tarbiyasiga bogliq bo'ladi .Shu sababli ota -ona o'z bolalarining tarbiyachisi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarning ishtiroki tarbiyachi va bolalar uchun juda yaxshi natijalarni olib keladi.Ma'lumki ,bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari ,fikir va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan ,aqli yetgan narsalarni so'ray va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota -onalar milliy fazilatimizga muhabbat bilan qarash ,razolatdan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar.MTM ning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish , keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ota -onalar bilan MTM xodimlarini birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni MTM dagi sharoitlarga bog'lidir.Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiraladigan joyda o'zaro yordam ,bir-birini tushunish,topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi.Ota-onalar MTM maydonini ko'kalamzorlashtirish ,xonalarni qish mavsumiga tayyorlash,sog'lomlashtirish

ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari, bolalarga bayram kostyumlari tayyorlashda ,bolalarni sayohatga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin. Bolalar bog'chasida olib boriladegan hamkorlik ishlarida faqat ma'ruzalar bilan cheklanib qolmay ,balki anketa savollariga javob olish ,ishchanlik o'yinlar olib borish kabi noan'anaviy usullardan foydalanish ota-onalarda bola tarbiyasi bo'yicha pedagogik bilimlarga ega bo'lish ehtiyojini paydo qiladi. So'nggi yillarda pedagog va tarbiyachilar bilim salohiyatini yanada oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.Ammo maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hali yechimini kutayotgan kamchiliklar talaygina .Bolalar bog'chasi va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda director ,pedagoglar jamoasi va ota onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim.Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijaga erishish mumkin. Bola bog'chada egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarini bog'chaga namoyon qilsa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Pedagoglar oila tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay ,balki uni qollab -quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Ota -onalar bilan olib boriladegan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi -metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota -onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi,chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi .U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi ularni maktab ta'limiga tayyorlash sog'ligini saqlash ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi. Ota -onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar ,oilalarga borish ,ayrim ota-onalarni bogchaga taklif etish ,alohida estaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish lozim.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad-oila sharoiti ,bolaning oiladagi xulqi ,qiziqishlari ,ota -onasi va oila a'zolari bilan tanishish ,shuningdek ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib ,ommalashtirishdir.Pedagog bolaning

uyiga tekshiruvchi sifatida emas , balki do'st , bola tarbiyasidek murakkab ishga yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bolishi kerak. Pedagog har bir oilaga borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi , qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda bolaning har tomonlama rivojlanib kamol topishi uchun shaxs sifatida shakllanishi uchun pedagoglar va oila hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bola oilada ilk bor tarbiya olsa, maktabgacha talimga kelib bu yanada chuqurroq shakllanadi , bola jamoaga qoshilishni organadi, muhitga moslasha boshlaydi. Har xil oyinlar va mashgulotlar orqali tarbiyalanadi va bu bilim, ko'nikmalarni jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent-“ILM ZIYO”-2006.
2. Maktabgacha pedagogika .F.R.Qodirova ,Sh.Q.Toshpo'latova,N.M.Kayumova,M.N.A'zamova. “Tafakkur “ Nashriyoti Toshkent-2019.
3. Mirziyoyev Sh.M “Tanqidiy tahlil , tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak “O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi 2016-yil yakunlari va 201-yi istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi .Xalq so'zi gazetasi 2017-yil.
- 4.”Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi”.Toshkent-2017-yil.